

## OLIV TA'LIM MUASSALARINI MOLIVYALASHTIRISH AMALIVYOTI TAHLILI

*Nabijonov Muhammadjalil Tolibjon o'g'li*

*Toshkent moliya instituti*

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining soni, ularning xududiy joylashuvi, professor-o'qituvchilar tarkibi, talabalar va bitiruvchilar soni kabi oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishga bevosita ta'sir qiladigan ma'lumotlar bilan boshlaymiz. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimida 2020/2021 o'quv yilining boshida 127 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritib, bu o'tgan o'quv yiliga nisbatan 8 birlikga yoki 6,7 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**2020/2021 o'quv yilining boshida Respublikamizdagi OTMlar va ularda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar va talabalar to'g'risidagi ma'lumot<sup>1</sup>**

<b>Respublika hududlari</b>	<b>Oliy ta'lim muassasalarining soni 2020/2021 o'quv yili boshiga</b>	<b>Talabalar soni 2020/2021 o'quv yili boshiga (ming kishi)</b>	<b>OTM professor o'qituvchilari tarkibi 2020/2021 o'quv yili boshiga (ming kishi)</b>	<b>OTMlarni 2020 yilda bitiruvchilar soni</b>
-----------------------------	---	---	---	---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida hisoblandi

Qoraqalpaq Respublikasi	9	35,5	1,8	5,5
<i>Viloyatlar:</i>				
Andijon	6	30,9	2,1	4,6
Buxora	5	35,6	1,9	4,8
Jizzax	3	23,4	1,0	3,9
Qashqadaryo	6	27,9	1,5	5,2
Navoiy	2	17,0	0,7	3,1
Namangan	3	26,0	1,6	4,1
Samarqand	12	54,8	3,3	7,2
Surxondaryo	7	25,6	1,4	3,3
Sirdaryo	2	9,6	0,5	1,6
Toshkent v.	8	28,5	1,4	4,1
Farg'ona	10	48,4	2,1	5,8
Xorazm	3	22,8	1,2	3,2
Toshkent sh.	51	185,5	11,6	27,5
<b>Jami</b>	<b>127</b>	<b>571,5</b>	<b>32,1</b>	<b>83,9</b>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Respublikamizda eng ko'p OTMlari Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda, ularning salmog'i jami OTMlarning 40 foizini tashkil etadi. Mos ravishda 2020/2021 o'quv yilining boshida OTMlarda 571,5 ming talabalar tahsil olayotganliklarini va jami talabalarning 32,5 foizi yoki 185,5 mingi Toshkent shahrida ta'lim olayotganligini ko'rishimiz mumkin. Professor o'qituvchilar tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, jami oliy ta'lim muassasalarida 32,1ming (o'rindoshlarsiz) nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritib shundan 14,2 yoki 44,2 foizini ayollar, 17,9 yoki 55,8 foizini erkaklar tashkil etadi.

So'nggi yillarda respublikamizda taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarini filiallarini ham tashkil etish har tomonlama qo'llab quvvatlanilmoqda.

Olib borilgan tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki so'nggi besh yilda oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilgan. Nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishlari, qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash tizimining yo'lga qo'yilib, tobora kengayib borishi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida erkin raqobatning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Bu islohotlar oliy ta'limni moliyalashtirish tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»<sup>2</sup>gi 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son Farmoni va «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida»<sup>3</sup>gi «2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son qarori ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ularga budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishda ko'proq imkoniyatlar yaratish, oliy ta'limdagi islohotlar samaradorligini va ta'lim sifatini yanada oshirish, professor-o'qituvchilar va talabalarga zamonaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida»<sup>4</sup>gi qarori qabul qilinib, ushbu qarorga asosan 2020 yildan boshlab ilmiy pedagogik salohiyati yuqori, moliyaviy faoliyati barqaror, moddiy-texnika bazasi yetarli darajada, ta'lim xizmatlari bozorida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga talab yuqoriligini inobatga olib, 2020 yil 1

---

<sup>2</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>3</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni

yanvardan boshlab, tajriba-sinov tariqasida o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga 10 ta oliy ta'lim muassasalari o'tkazildi» .

Ushbu qarorga asosan o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalariga quyidagicha qo'shimcha vazifalar belgilandi:

— qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyot tarmoqlari mutaxassislarining malakasini oshirish va boshqa pullik xizmatlarni joriy etish;

— tegishli sohadagi dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda sohaning ilmiy muammolarini hal etishga yo'naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion izlanishlarni amalga oshirish;

— respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarga istiqbolli yosh bitiruvchilarni magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish orqali oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyatini doimiy oshirib borish;

— zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalana oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan professor-o'qituvchilarni tanlash maqsadida oliy ta'lim muassasasi hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida bir yillik muddatli shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish kabi vazifalar.